



**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI YOZISH, RASMIYLASHTIRISH VA
HIMOYA QILISHNING TASHKILY-METODIK ASOSLARI**

**XAYROV R.Z.
SHATUNOVA O.V.**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI YOZISH, RASMIYLASHTIRISH VA HIMOYA QILISHNING TASHKILY- METODIK ASOSLARI



USLUBIY KO'RSATMA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI
YOZISH, RASMIYLASHTIRISH VA
HIMOYA QILISHNING TASHKILIY-
METODIK ASOSLARI**

USLUBIY KO‘RSATMA

**70110501 - Tasviriy san’at yo‘nalishi magistratura
mutaxassisligi uchun**

Guliston - 2025

UDK: 7:37(075.8)

BBK: Ch420.2ya73

Ushbu uslubiy ko'rsatma magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish tartibini belgilaydigan amaldagi davlat me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan. Uslubiy ko'rsatma da magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan asosiy talablar, uni o'quv-ilmiy jarayonda tayyorlash bosqichlari, shuningdek, himoya qilishning me'yorlari va tartiblari yoritilgan.

Uslubiy ko'rsatma magistratura talabalari, ularning ilmiy rahbarlari hamda dissertatsiyalarga taqriz beruvchi mutasaddilar uchun mo'ljallangan.

MUALIFLAR:

Xayrov R.Z., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Guliston davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrası dotsenti;

Shatunova O.V., pedagogika fanlari nomzodi,
Qozon (Privolje) federal universitetining Yelabuga instituti
"Pedagogika" kafedrası mudiri, dotsent.

TAQRIZCHILAR:

Nasrullayev E.J., filologiya fanlari doktori, professor
Berikbayev A.A., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR:

Jumaboyev N.P., GDPI "San'atshunoslik" kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,

**Xayrov R.Z., Shatunova O.V. Magistrlik dissertatsiyasini yozish,
rasmiylashtirish va himoya qilishning tashkiliy-metodik asoslari.
Uslubiy ko'rsatma. - Guliston, GDPI, 2025-yil, -69-bet**

*Uslubiy ko'rsatma Guliston davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik"
kafedrası Kengashining 2025 yil "25" sentyabrdagi "№2"- sonli majlis
muhokamasidan o'tdi va chop etishga tavsiya etildi.*

ANNOTATSIYA

Ushbu uslubiy ko'rsatma magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish jarayonini tizimli ravishda tashkil etishga bag'ishlangan. Ko'rsatmada dissertatsiya mavzusini tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash tartibi, magistrantning kalendar ish rejasini shakllantirish, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetini belgilash masalalari yoritilgan. Shuningdek, dissertatsiya tuzilishi, ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatni asoslash, matn, jadval, rasm va ilovalarni rasmiylashtirish talablari bayon etilgan. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki va rasmiy himoyasini o'tkazish, taqriz va retsenziyalarga qo'yiladigan talablar, taqdimot tayyorlash tartibi ham atroflicha tushuntirilgan. Metodik ko'rsatma magistrantlar va professor-o'qituvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

АННОТАЦИЯ

Данное методическое руководство посвящено системной организации процесса подготовки, оформления и защиты магистерской диссертации. В руководстве освещаются порядок выбора темы диссертационного исследования и назначения научного руководителя, формирование календарного плана работы магистранта, а также вопросы определения цели, задач, объекта и предмета исследования. Кроме того, изложены требования к структуре магистерской диссертации, обоснованию научной новизны и практической значимости, правила оформления текста, таблиц, иллюстраций и приложений. Также подробно разъясняются порядок проведения предварительной и итоговой защиты магистерской диссертации, требования к отзывам и рецензиям, а также процедура подготовки презентационных материалов. Методическое руководство имеет практическую значимость и предназначено для магистрантов и профессорско-преподавательского состава высших образовательных учреждений.

ANNOTATION

This methodological guide is devoted to the systematic organization of the process of preparing, formatting, and defending a master's thesis. The guide outlines the procedure for selecting a research topic and appointing a scientific supervisor, developing the master's student's work schedule, as well as defining the aim, objectives, object, and subject of the research. In addition, it presents the requirements for the structure of the master's thesis, the substantiation of scientific novelty and practical significance, and the rules for formatting the text, tables, figures, and appendices. The procedures for conducting the preliminary and final defense of the master's thesis, the requirements for reviews and evaluations, as well as the process of preparing presentation materials are also explained in detail. The methodological guide has practical value and is intended for master's students and the faculty members of higher education institutions.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	5
------------------	---

I. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING TUZILISHI VA MAZMUNI

1.1. Dissertatsiya mavzusini tanlash hamda ilmiy rahbarni tayinlash tartibi.....	7
1.2. Magistrantning ish rejasini kalendar asosida belgilash tartibi.....	9
1.3. Dissertatsiyaning tuzilishi va unga belgilangan talablar.....	10
1.4. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obʻekti va predmetini belgilash.....	13
1.5. Magistrlik dissertatsiyasida ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatni asoslash.....	15

II. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI RASMIYLASHTIRISH VA HIMOYA QILISH

2.1. Magistrlik dissertatsiyasini yozish va rasmiylashtirishning asosiy qoidalari.....	21
2.2. Dissertatsiya matniga, jadval, rasm va ilovalarga qoʻyiladigan talablar.....	22
2.3. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasini oʻtkazish tartibi.....	24
2.4. Magistrlik dissertatsiyasiga beriladigan taqriz va retsenziyalarga qoʻyiladigan talablar.....	26
2.5. Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlash tartibi.....	27
2.6. Magistrlik dissertatsiyasi himoyasini oʻtkazish qoidalari.....	28
2.7. Dissertatsiya himoyasiga taqdimot tayyorlash va uni oʻtkazish tartibi.....	29
Ilovalar.....	31
Glossariy.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	66

SO‘Z BOSHI

Ushbu “Magistrlik dissertatsiyasini yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma” O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni¹, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni² hamda 2015 yil 2 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan “Magistratura to‘g‘risida”gi Nizom³ asosida tayyorlangan bo‘lib, uning mazmunini to‘ldiruvchi va izohlovchi me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi. U oliy ta’lim muassasalarida magistrlar tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish, magistrlik dissertatsiyalarini yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo‘yicha yagona talablarni belgilashga qaratilgan.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, magistratura muayyan mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etuvchi oliy ta’lim bosqichi hisoblanadi. Magistraturada ta’lim olish jarayoni yakunlovchi davlat attestatsiyasi hamda magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan yakunlanadi. Magistrarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshirilib, u muayyan mutaxassislik yo‘nalishida ilmiy, ilmiy-pedagogik va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beradi. Magistratura ta’limi davlat ta’lim standartlari asosida ishlab chiqilgan maxsus ta’lim dasturlari bo‘yicha amalga oshirilib, u magistrantlarni fundamental bilimlar, sohaviy va kasbiy kompetensiyalar asosida mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-amaliy hamda ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Shuningdek, magistratura ta’limi kelgusida doktoranturada o‘qish va ilmiy daraja olish uchun zarur ilmiy salohiyatni shakllantiradi.

Magistrlik dissertatsiyasi - magistratura bosqichidagi asosiy yakuniy ilmiy ish bo‘lib, u talabaning mustaqil izlanish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, ilmiy xulosa chiqarish va ularni asoslab berish

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

³ “Magistratura to‘g‘risida”gi Nizom - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-2579469>

qobiliyatini ko'rsatadi. Shu bois dissertatsiyani tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish qat'iy qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi talabanning tanlangan yo'nalishdagi muammolarni tahlil qilish, ilmiy manbalar bilan mustaqil ishlash, zamonaviy metodlarni qo'llash va ilmiy-amaliy natijalar yaratish qobiliyatini ko'rsatadi. U kelgusidagi ilmiy-pedagogik faoliyat uchun zarur mustahkam metodologik asosni shakllantiradi.

“70110501 - Tasviriy san'at” ta'lim yo'nalishida magistrlik dissertatsiyalari mavzulari ta'lim muassasasining tegishli tayanch kafedralari tomonidan sohaning dolzarb muammolari, zamonaviy tasviriy san'at, pedagogika va metodikadagi ilmiy yangiliklar, shuningdek, fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yutuqlari hisobga olingan holda belgilanadi. Magistrlik dissertatsiyasi ijodiy-tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, unda nazariy tahlil bilan bir qatorda amaliy-ijodiy yechimlar ham aks etishi lozim. Magistrlik dissertatsiyalari himoyasini o'tkazish uchun universitet rektori buyrug'i asosida Attestatsiya komissiyalari tashkil etiladi. Attestatsiya komissiyalari tarkibi tayanch oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik kadrlari, turdosh oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, sohaviy tashkilotlar va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan shakllantiriladi.

Attestatsiya komissiyasi tarkibi universitet rektori tomonidan himoya boshlanishidan kamida bir oy oldin tasdiqlanadi. Magistrlik dissertatsiyalari himoyasi (yopiq mavzulardan tashqari) Attestatsiya komissiyasining ochiq majlislarida, a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirokida o'tkaziladi. Himoya natijalari 100 ballik tizim asosida baholanadi va komissiya majlisi bayoni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng shu kuniyoq e'lon qilinadi.

Attestatsiya komissiyasining yakuniy qarorlari asosida magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan bitiruvchilarga belgilangan tartibda magistr akademik darajasini tasdiqlovchi diplom beriladi.

I. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING TUZILISHI VA MAZMUNI

1.1. Dissertatsiya mavzusini tanlash hamda ilmiy rahbarni tayinlash tartibi.

Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi zamonaviy fan, ta'lim va amaliy faoliyatda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Xususan, "70110501 - Tasviriy san'at" ta'lim yo'nalishida magistrlik dissertatsiyalari nazariy tahlil bilan bir qatorda ijodiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni qamrab olishi maqsadga muvofiqdir. Dissertatsiya mavzulari oliy ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari, shartnoma va grant loyihalari doirasida ham shakllantirilishi mumkin.

Magistrlik dissertatsiyalari mavzulari tegishli kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv yili boshlanishidan oldin, sohaning istiqbolli yo'nalishlari, ishlab chiqarish va ta'lim amaliyoti ehtiyojlari hamda buyurtmachilar manfaatlari hisobga olingan holda ishlab chiqiladi. Zarur hollarda ushbu mavzular buyurtmachi tashkilotlar bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha mas'ul rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi har bir magistrant tomonidan mutaxassislik kafedra tomonidan tavsiya etilgan mavzular ro'yxatidan mustaqil ravishda tanlab olinadi. Tanlangan mavzu magistrantning ilmiy qiziqishlari, kasbiy rejalari hamda ilmiy salohiyatiga mos bo'lishi lozim.

Professor yoki fan doktori (Doctor of Science - DSc) qoida tariqasida besh nafargacha, shuningdek, dotsent, fan nomzodi yoki falsafa doktori (Doctor of Philosophy - PhD) uch nafargacha magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qilishi mumkin. Ilmiy rahbarlikning amalga oshirilganligi tegishli buyruq, magistrantning shaxsiy kalendar ish rejasi hamda dissertatsiyaning himoyaga taqdim etilganligi bilan tasdiqlanadi.⁴

Kafedra tomonidan taklif etilgan va fakultet yoki oliy ta'lim muassasasi kengashida muhokama qilingan magistrlik dissertatsiyasi

⁴ "Magistratura to'g'risida"gi Nizom - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-2579469>

mavzulari hamda ilmiy rahbarlar birinchi o'quv yilining birinchi semestrda oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan rasman tasdiqlanadi.

Dissertatsiya mavzusi tasdiqlanib, ilmiy rahbar tayinlanganidan so'ng bir oy muddat ichida magistrantning familiyasi, ismi, sharifi, dissertatsiya mavzusining maqsadi va asosiy vazifalari qisqacha bayon etilgan holda oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Dissertatsiya mavzusi yoki ilmiy rahbarni o'zgartirish magistrantning asoslantirilgan yozma arizasi hamda ilmiy rahbarning roziligi asosida amalga oshiriladi. Mazkur masala oliy ta'lim muassasasining o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilib, tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi. O'zgartirilgan mavzu va ilmiy rahbar haqidagi ma'lumotlar belgilangan tartibda qayta e'lon qilinadi.

Tadqiqot mavzusi tasdiqlangandan so'ng magistrant ilmiy rahbar ishtirokida dissertatsiyani tayyorlash bo'yicha shaxsiy ish rejasini ishlab chiqadi. Ushbu rejada dissertatsiya ustida ishlashning barcha bosqichlari, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularning aniq muddatlari belgilanadi.

Magistrantning shaxsiy kalendar ish rejasi asosida ta'lim olishi uchun magistratura bo'limi, tegishli fakultet dekani, kafedra mudiri hamda ilmiy rahbar mas'ul hisoblanadi. Ish reja o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, pedagogik va amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'limlarni o'z ichiga oladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Magistrant ish rejasining bajarilishi bo'yicha har oy kafedra yig'ilishlarida hisobot beradi. Shuningdek, semestr yakunida ilmiy rahbar ishtirokida dissertatsiyaning bajarilish holati, tayyorlangan ilmiy maqolalar, o'tkazilgan ijodiy ishlar va boshqa natijalar to'g'risida tegishli kengashlarga yozma hisobot taqdim etiladi.

Agar magistrant tomonidan shaxsiy ish rejasi muntazam ravishda buzilsa yoki dissertatsiya o'z vaqtida bajarilmasa, ilmiy rahbar uni dastlabki himoyaga tavsiya etmaslik huquqiga ega.

Ilmiy rahbar bilan maslahatlashuvlar belgilangan jadval asosida muntazam o'tkazilib, unda dissertatsiya ishining borishi, reja bajarilishi va tadqiqot natijalari muhokama qilinadi. Bu jarayon magistrantning ilmiy ishini tizimli tashkil etish va uni o'z vaqtida yakunlashga xizmat qiladi.

Ilmiy rahbarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy maslahatlar berish va maslahatlar jadvalini tuzish;
- tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni amaliyotda qo'llashga ko'maklashish;
- magistrantning kalendar ish rejasi bajarilishini nazorat qilish;

- dissertatsiyada plagiat holatlariga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlash;
- dastlabki himoyaga qadar dissertatsiyaga ilmiy xulosa tayyorlash.

Magistrlik dissertatsiyasi magistrantning o‘qish jarayonida egallagan nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari asosida bajarilgan mustaqil ilmiy-tadqiqot ishining natijasi hisoblanadi.

Magistrant dissertatsiya mavzusi bo‘yicha o‘quv-uslubiy adabiyotlar, ilmiy manbalar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganib, tadqiqot uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar bazasini shakllantiradi.⁵ Bu jarayonda darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va rasmiy hujjatlar bilan ishlash tavsiya etiladi.

Shakllantirilgan ma‘lumotlar bazasi tahlil qilinib, dissertatsiyani yozishda foydalaniladigan manbalar alohida saralab olinadi. Magistrantning tadqiqotni chuqur va mazmunli yoritishi uning manbalar bilan ishlash darajasiga bevosita bog‘liqdir. Ushbu jarayon magistrantda mustaqil tahlil qilish, ilmiy fikr yuritish va kelgusida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1.2. Magistrantning ish rejasini kalendar asosida belgilash tartibi.

Magistraturada ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash, magistrantlarning o‘quv va ilmiy faoliyatini tizimli nazorat qilish maqsadida oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i asosida maxsus ishchi guruh tashkil etiladi. Ushbu guruh tarkibiga yetakchi professor-o‘qituvchilar, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy xodimlar, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari bo‘lgan tashkilot va muassasalarning tajribali mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Magistratura talabasining kalendar ish rejasi o‘qish davri davomida uning o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatini rejalashtirish va baholashga xizmat qiladi hamda kurslar kesimida quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi.

1-kursda:

- magistrantning tasdiqlangan kalendar ish rejasini belgilangan muddatlarda to‘liq bajarishi;
- kamida bitta ilmiy maqola yoki respublika yoki xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyada bitta tezis nashr etgan bo‘lishi;
- ilmiy seminar va muhokamalarda faol ishtirok etishi;
- mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish darajasi.

⁵ Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. -Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, - 453 b.

2-kursda:

- kalendar ish rejasining belgilangan muddatlarda o'z vaqtida bajarilishi;
- kamida ikkita ilmiy maqola yoki ikki tezisning ilmiy konferensiya materiallarida chop etilgan bo'lishi;
- rejaga muvofiq holda magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyadan o'tkazilganligi;
- ilmiy seminarlarda muntazam ishtirok etishi;
- mutaxassislik bo'yicha barcha o'quv fanlarini to'liq o'zlashtirishi.

Ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va o'qish muddatlarini inobatga olgan holda, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan tarzda ayrim magistratura mutaxassisliklari uchun monitoring ko'rsatkichlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

1.3. Dissertatsiyaning tuzilishi va unga belgilangan talablar.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashda unga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ishning belgilangan me'yoriy qoidalarga muvofiq ravishda to'g'ri va aniq rasmiylashtirilishi hisoblanadi. Dissertatsiyani to'g'ri rasmiylashtirish uning ilmiy va amaliy qiymatini oshirish bilan bir qatorda, himoya jarayonining muvaffaqiyatli o'tishiga ham xizmat qiladi. Chunki magistrlik dissertatsiyasi mustaqil ilmiy tadqiqot sifatida fan darajasi olish uchun yoziladigan ishlarga qo'yiladigan umumiy talablarga javob berishi lozim.

Tayyorlanayotgan dissertatsiyaning dastlabki tuzilishi loyihasi albatta kafedra yig'ilishida muhokama qilinishi, uning mazmuni va mantiqiy ketma-ketligi bo'yicha taklif va e'tirozlar bildirilishi shart. Amaliyotda sinovdan o'tgan va ilmiy jamoa tomonidan ma'qullangan tuzilma davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

- titul varaq;
- o'qitish tilida va ingliz tilida tayyorlangan qisqacha annotatsiya;
- mundarija;
- kirish qismi;
- asosiy qism (uch bobdan iborat);
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- ilovalar (mavjud bo'lgan taqdirda).

Ushbu tarkibiy qismlar dissertatsiya mazmunini izchil, mantiqiy va ilmiy jihatdan asoslangan holda yoritishga xizmat qiladi.

Titul varag'i va mundarija. Titul varag'i magistrlik dissertatsiyasining birinchi sahifasi hisoblanib, u belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq ravishda rasmiylashtiriladi (3-ilova). Titul varag'idan keyingi ikkinchi sahifada dissertatsiyaning mundarijasi joylashtiriladi (4-ilova). Mundarijada dissertatsiya tarkibiga kiruvchi barcha bo'limlar, boblar, kichik bo'limlar hamda ularning sahifa raqamlari to'liq va aniq ko'rsatiladi.

Mundarijada keltirilgan sarlavhalar dissertatsiya matnidagi sarlavhalar bilan mazmunan va shaklan to'liq mos bo'lishi shart. Shuningdek, boblar va qismlarning ketma-ketligi dissertatsiyaning umumiy tuzilishiga muvofiq ravishda saqlanishi lozim. Bu talablar dissertatsiya mazmunining tizimlilik va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va uni tanlash zarurati asoslanadi, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilinadi hamda uning ilmiy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, kafedraning ilmiy yo'nalishlari bilan bog'liqligi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, qo'llanilgan tadqiqot usullari, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy, pedagogik va amaliy ahamiyati, shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya hajmi haqida ma'lumotlar keltiriladi (5-ilova).

Dissertatsiyaning asosiy mazmuni. Magistrlik dissertatsiyasini yozish kirish qismidan boshlanadi. Kirish qismi, qoida tariqasida, dissertatsiya umumiy hajmining taxminan 10-15 foizini tashkil etadi. Unda tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ishning ilmiy yangiligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, qo'llanilgan tadqiqot usullari, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida aniq ma'lumotlar berilishi lozim.

Dissertatsiya mundarijasi tadqiqot mazmunini aks ettiruvchi sarlavhalar tizimidan iborat bo'lib, unda barcha boblar va ularning mazmunini ifodalovchi qismlar to'liq va qisqartirilmasdan keltiriladi. Boblar va bo'limlar nomlari hamda ularning ketma-ketligi dissertatsiya matni bilan to'liq mos kelishi shart.

Magistrlik dissertatsiyasi mazmuni quyidagi asosiy masalalarni qamrab olishi lozim:

- tanlangan mavzunung nazariy ahamiyati, dolzarbligi va uni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlari;

- tadqiqot ob'ektidagi mavjud holatlarni tahlil qilish, ularni baholash va tahlil natijalari asosida ilmiy xulosalar chiqarish;
- tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni asoslab berish.

Magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismi, odatda, kamida ikki bobdan iborat bo'ladi. Boblar mazmun va hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi lozim. Ularda mavzuga oid ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy va amaliy tadqiqot natijalarining tanqidiy tahlili, tadqiqot metodikasi, amaliy qismning bayoni hamda tadqiqot muammosini hal etishda magistrantning shaxsiy hissasi aks ettirilgan asosiy natijalar yoritiladi.

Dissertatsiyaning xulosa qismida barcha boblarda keltirilgan natijalar umumlashtirilib, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslanadi hamda tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha yakuniy xulosalar bayon etiladi. Xulosa qismi, qoidaga ko'ra, 4-5 sahifadan oshmasligi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasiga uning mazmunini ochib berish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar ilova qilinishi mumkin. Ilova qismiga jadvallar, rasmlar, diagrammalar, metodik ishlanmalar yoki boshqa yordamchi materiallar kiritiladi. Ilovalar hajmi dissertatsiya umumiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Magistrlik dissertatsiyasi zamonaviy fan va ta'lim amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb mavzuga bag'ishlanishi lozim. Tanlangan mavzu magistrantning ilmiy tayyorgarlik darajasini, mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish qobiliyatini hamda kelgusidagi kasbiy faoliyati davomida aniq muammolarni hal eta olish salohiyatini namoyon etadi.⁶

Mavzunung dolzarbligi magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan asosiy ilmiy talablardan biri bo'lib, u kirish qismining taxminan bir sahifasini tashkil etishi lozim. Ushbu bo'limda mavzuga aynan hozirgi bosqichda murojaat qilishning maqsadga muvofiqligi, uning ilmiy va amaliy jihatdan qanday ehtiyojdan kelib chiqqani, tadqiqot predmeti bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar holati hamda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar asoslab berilishi talab etiladi.

1.4. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetini belgilash.

Tadqiqotning maqsadi. Magistrlik dissertatsiyasi doirasida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishining asosiy maqsadi magistrantlarda

⁶ Tulenova K. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 218 b.

mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish uchun zarur bo'lgan umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot jarayonida magistrantning ilmiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalarini takomillashtirish ham ko'zda tutiladi.

Tadqiqotning vazifalari. Belgilangan maqsadga erishish uchun ilmiy-tadqiqot ishida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- magistrantning o'z kasbiy faoliyati yo'nalishi bo'yicha mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ilmiy tadqiqot jarayonlarida faol ishtirok etish orqali tajriba orttirish;
- ilmiy tafakkur va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- ilmiy izlanishlar metodikasini o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ekti va predmeti o'zaro umumiy va xususiy munosabatda bo'ladi. Ob'ekt keng qamrovli ilmiy sohani ifodalasa, predmet aynan shu ob'ekt doirasida tadqiqotga jalb etilgan muayyan jihat yoki jarayonni anglatadi. Magistrantning asosiy e'tibori tadqiqot predmetiga qaratilgan bo'lib, aynan shu predmet dissertatsiya mavzusining mohiyatini belgilaydi va u titul varag'ida sarlavha sifatida ifoda etiladi.

Tadqiqot usullari. Magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda turli ilmiy usullar qo'llaniladi. Jumladan, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-ta'rixiy va kontekstual tahlil usullari, shuningdek, empirik va nazariy tadqiqot usullari - abstraktlash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanish mumkin. Ushbu usullar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

1.5. Magistrlik dissertatsiyasida ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatni asoslash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi dissertatsiya jarayonida olingan asosiy xulosalarning qisqacha ifodasida namoyon bo'ladi. Bu yangiliklar to'g'ri qo'yilgan ilmiy muammo va unga javob beruvchi zarur hamda yetarli holatlarni tahlil qilish orqali aniqlanadi. Ilmiy yangilik sifatida yangi faktlarni aniqlash, muammoning ilmiy asoslangan yechimi, yangi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish yoki mavjud ilmiy natijalarni yangi sharoitlarda qayta asoslash qayd etilishi mumkin. Olingan natijalarning yangiligi ularni avvalgi tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslash orqali ko'rsatilishi mumkin. Ayrim hollarda dissertatsiya

natijalarining barchasi yoki muayyan qismi ilmiy yangilik sifatida e'tirof etilmasligi ham mumkin, bu esa ishning umumiy ilmiy qiymatini pasaytirmaydi.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'ladi.

1. Nazariy va metodologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda ishning amaliy ahamiyati quyidagilarda ifodalanadi:

- tadqiqot natijalarining ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklarda e'lon qilinishi;
- tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi;
- ilmiy-amaliy konferensiya va simpoziumlarda natijalarning muhokama qilinishi;
- oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quv jarayonida qo'llanilishi;
- davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi;
- me'yoriy va uslubiy hujjatlarni tayyorlashda tatbiq etilishi.

2. Uslubiy yoki amaliy yo'nalishdagi tadqiqotlarda amaliy ahamiyat quyidagi natijalar bilan belgilanadi:

- ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy yoki boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilishi;
- sohaviy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar tayyorlanishi;
- vazirliklar, davlat idoralari va boshqa manfaatdor tashkilotlar uchun tasdiqlangan yoki tavsiya etilgan me'yoriy-uslubiy hujjatlar ishlab chiqilishi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mavzuning o'rganilganlik darajasini yoritishda ushbu muammo bilan shug'ullangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinadi, mavjud tadqiqotlarda yetarlicha yoritilmagan yoki umuman qamrab olinmagan jihatlar aniqlab ko'rsatiladi.

Magistrant mazkur bo'limda ilmiy manbalar bilan ishlash mahoratiga ega ekanini, bibliografik materiallarni tahlil qila olish qobiliyatini hamda avvalgi tadqiqotchilarning ushbu muammo yechimiga qo'shgan hissasini xolisona baholay olishini namoyon etishi lozim.

Adabiyotlar tahlili natijasida tanlangan mavzuning to'liq yoki qisman yetarli darajada o'rganilmaganligi, yoki uning boshqa nuqtai nazardan tadqiq etilishi zarurligi haqida asoslangan xulosa chiqarilishi kerak. Bu esa

dissertatsiya mavzusining ilmiy jihatdan asoslangan va dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olib borilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati global o'zgarishlar sharoitida tasviriy san'at ta'limi va uni o'qitish metodikasi sohasini zamonaviy ilmiy manbalar, yangi adabiyotlar va ilg'or pedagogik yondashuvlar asosida kompleks o'rganish imkoniyatini yaratishi bilan izohlanadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va ilmiy qoidalar tasviriy san'at ta'limiga oid ilmiy qarashlarni boyitishga, mavjud ilmiy konsepsiyalarni yanada takomillashtirishga hamda sohaning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari kelgusida ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uning natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni **70110501 - Tasviriy san'at** ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonini takomillashtirish, mutaxassislik fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish hamda pedagog-rassomlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqot xulosalari oliy va professional ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanlarini o'qitishda metodik qo'llanma sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy natijalarning amaliy faoliyatga tatbiq etilganligi tadqiqotning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu natijalar oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanlarini o'qitish jarayonida qo'llanilishi, ilmiy-amaliy konferensiyalar va ilmiy seminarlarda muhokama qilinishi orqali sinovdan o'tkazilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar tasviriy san'at ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish va sohadagi ilmiy-metodik ishlarni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda, ilmiy to'plamlarda, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda chop etilgan maqolalar va tezislar orqali aprobatsiyadan o'tkaziladi. Bu holat tadqiqot natijalarining ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama qilinishi va baholanishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish qismi, belgilangan miqdordagi boblar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'ladi. Dissertatsiyaning umumiy hajmi belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq ravishda aniqlanadi va tegishli sahifalar soni bilan ifodalanadi.

Asosiy qism. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismi, qoida tariqasida, uchta bobdan iborat bo'ladi. Birinchi bobda tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud ilmiy-nazariy qarashlar, konsepsiyalar va yondashuvlar tahlil qilinadi hamda muammoning nazariy jihatdan qo'yilishi asoslanadi. Ikkinchi bobda ilgari surilgan nazariy qoidalarni tasdiqlovchi empirik va faktik materiallar bayon etiladi, tasviriy san'at ta'limi sohasidagi amaliy tajriba tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlanadi. Uchinchi bobda esa magistrant tomonidan tadqiqot muammosini hal etishga qaratilgan ilmiy takliflar, metodik tavsiyalar va amaliy xulosalar ishlab chiqiladi.

Asosiy qism boblari mazmun va hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi lozim. Ularda tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqot natijalarining tanqidiy tahlili, qo'llanilgan tadqiqot metodikasi va ishning amaliy qismi bayon etiladi. Shuningdek, tadqiqot muammosini hal etishda magistrantning shaxsiy hissi, ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi dolzarb masalalarni hal qilishga qo'shgan hissi ham aniq ko'rsatib berilishi shart. Boblarda tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi izchil ravishda yoritiladi.

Asosiy qism boblarida o'rganilayotgan hodisa va faktlar batafsil tahlil qilinib, ularning mazmuni ilmiy asosda ochib beriladi. Bob va paragraf sarlavhalari asosiy ma'no yuklaydigan so'zlardan tashkil topishi, aniq va lo'nda bo'lishi hamda matn mazmunini to'liq aks ettirishi lozim. Dissertatsiyaning har bir bobi yangi sahifadan boshlanadi, bob nomi bilan matn o'rtasida belgilangan interval saqlanadi. Bob va paragraf nomlari xati boshidan yoziladi, ular oxiriga nuqta qo'yilmaydi, ajratib ko'rsatish maqsadida osti chizilmaydi yoki boshqa sahifaga ko'chirilmaydi. Paragraflar arab raqamlari bilan raqamlanib, raqamlashda bob raqami va paragraf raqami ketma-ketlikda ko'rsatiladi.

1-bob. Birinchi bobda tadqiqot mavzusining umumiy nazariy muammolari, shu sohaga oid o'xshash ilmiy va amaliy vazifalarni hal etishga qaratilgan mavjud nazariyalar hamda amaliyot holati atroflicha tahlil qilinadi. Bob doirasida tasviriy san'at ta'limi va uni o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar, milliy va xorijiy tadqiqotlar, ilg'or pedagogik tajribalar o'rganiladi. Shuningdek, mavjud yechimlarni mahalliy ta'lim amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari ham ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.

Ushbu bobda tadqiqot deduktiv yondashuv asosida olib boriladi, ya'ni umumiy ilmiy qoidalardan kelib chiqqan holda xususiy holatlar tahlil qilinadi. Turli xususiy misollar, holatlar va tajribalarni o'rganish orqali umumiy qonuniyatlar va ilmiy xulosalar shakllantiriladi. Bu jarayon tasviriy san'at yo'nalishida mavjud pedagogik muammolarni nazariy jihatdan anglash va ularning ilmiy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

2-bob. Ikkinchi bobda magistrant tomonidan tadqiqot uchun asos qilib olingan mavzu doirasidagi hodisalar va faktlar batafsil ko'rib chiqiladi hamda tahlil qilinadi. Bobda tadqiqotning metodikasi va amaliy jihatlari bayon qilinib, tasviriy san'at ta'limi amaliyotida uchraydigan holatlar ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Shu bilan birga, olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish, ularni mantiqiy tartibda joylashtirish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot jarayonida yig'ilgan faktlar soni maqsadga muvofiq ravishda optimal darajada bo'lishi lozim, chunki ortiqcha ma'lumot tahlil sifatini pasaytirishi mumkin. Bobning har bir paragrafi ko'rib chiqilgan materiallar asosida umumlashtiruvchi ilmiy xulosalar bilan yakunlanadi. Bu esa tadqiqot natijalarining izchil va mantiqiy shakllanishini ta'minlaydi.

3-bob. Uchinchi bobda o'rganilgan tizim va o'tkazilgan tahlil natijalari asosida tadqiqot maqsadiga muvofiq holda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bobda tadqiqot ob'ektini rivojlantirishning eng maqbul va samarali yo'llari ilmiy jihatdan asoslanadi hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari taklif etiladi. Tasviriy san'at ta'limida aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar muayyan sxema va modellar asosida ifodalanadi.

Ushbu bobda berilgan tavsiyalar ilmiy tahlilga tayanadi hamda ularning samaradorligi asoslab beriladi. Olingan natijalar ta'lim amaliyotida qo'llash imkoniyati nuqtai nazaridan baholanib, ularning pedagogik va metodik ahamiyati ochib beriladi. Shu bilan birga, magistrlik dissertatsiyasining har bir bobidan keyin ushbu bob doirasida olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilishi shart.

Xulosa. Magistrlik dissertatsiyasi o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtiruvchi xulosa qismi bilan yakunlanadi. Xulosa bo'limida dissertatsiyaning barcha boblarida bayon etilgan asosiy natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritiladi hamda tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha umumiy xulosalar bayon qilinadi. Bu qism, odatda, dissertatsiya umumiy hajmining taxminan 10–15 foizini tashkil etadi va uning hajmi 4 sahifadan oshmasligi lozim.

Dissertatsiyaning ayrim boblari ham qisqacha xulosalar bilan yakunlanishi mumkin, ammo eng muhim va umumlashtirilgan natijalar ishning yakuniy qismi bo'lgan «Xulosa» bo'limida to'liq ifoda etilishi kerak. Xulosada keltirilgan natijalar tadqiqot jarayonida qo'yilgan vazifalarning yechimi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qismida magistrant dissertatsiyaning asosiy qismida keltirilgan dalillar, ilmiy qarorlar va takliflarning eng muhim jihatlarini yoritadi. Matnda bayon etilgan barcha tavsiya va takliflar mantiqiy ravishda xulosaga olib chiqilishi lozim. Mavzuga bevosita aloqasi bo'lmagan ma'lumotlarni ushbu bo'limga kiritish maqsadga muvofiq emas.

Xulosa o'tkazilgan tadqiqotning mantiqiy yakunlovchi qismi bo'lib, u asosiy boblarda to'plangan ilmiy ma'lumotlarning sintezi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu sintez tadqiqot natijalarining izchil va tizimli bayonini, shuningdek, kirish qismida belgilangan umumiy maqsad va vazifalar bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati magistrlik dissertatsiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, magistrantning mustaqil ilmiy-ijodiy faoliyati darajasini aks ettiradi. Ushbu ro'yxatga kiritilgan har bir manba dissertatsiya matnida bevosita qo'llanilgan va tahlil qilingan bo'lishi shart. Agar muallif tadqiqot jarayonida muayyan faktlardan foydalansa yoki boshqa mualliflar ishlaridan iqtibos keltirsa, ushbu ma'lumotlar manbasi sahifa ostida yoki belgilangan bibliografik tartibda aniq ko'rsatilishi lozim.

Dissertatsiya matnida ishlatilmagan, amaliy yoki nazariy jihatdan foydalanilmagan manbalarni bibliografik ro'yxatga kiritish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, ensiklopediyalar, ma'lumotnomalar, ilmiy-ommabop nashrlar va gazeta materiallarini asosiy adabiyotlar ro'yxatiga kiritish tavsiya etilmaydi. Agar bunday manbalardan foydalanish zarurati tug'ilsa, ular dissertatsiya matnida sahifa ostidagi izohlar orqali ko'rsatilishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasi yakunida magistrant tomonidan foydalanilgan adabiyotlarning to'liq ro'yxati keltiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar qatorida huquqiy-me'yoriy hujjatlar, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ilmiy jurnal maqolalari hamda ishonchli internet manbalari aks ettirilishi kerak. Barcha manbalar bo'yicha muallif familiyasi va ismi, asar nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan joyi va yili kabi to'liq bibliografik ma'lumotlar keltirilishi talab etiladi.

Dissertatsiya matnida foydalanilgan adabiyotdan olingan birinchi havola, ya'ni iqtibos u joylashgan betning pastki qismida 1 raqamida (1 -

matn yuqorisidagi belgi tarzida) keltiriladi. Keyingi ixtibos ham shu tariqa ketmaketlikda raqamlanadi. Iqtibos matnini Misrosoft Word matnli redaktorida Times New Roman, 9 shriftida keltirilishi tavsiya etiladi.

Magistrlik dissertatsiyasini yozishda foydalanilgan adabiyotlar mazmuniga ko'ra muayyan tartibda guruhlanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident asarlari va nutqlari, davlat boshqaruvi organlarining me'yoriy hujjatlari alohida ajratiladi. Shuningdek, asosiy va qo'shimcha ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar hamda internet manbalari izchil tarzda joylashtiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati dissertatsiya boblari bo'yicha keltirilib, manbalar raqamlanishi butun ish davomida uzluksiz saqlanishi lozim.

Ilovalar. Magistrlik dissertatsiyasi mazmunini ochib berish uchun bevosita zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar ilovalar qismida keltirilishi mumkin. Ilovalar dissertatsiya matnini ortiqcha yuklamasdan, asosiy g'oya va natijalarni yaxshiroq anglashga xizmat qiladi. Ilovaning umumiy hajmi magistrlik dissertatsiyasi umumiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim.

Ilova qismiga, asosan, dissertatsiya mazmunini tushunish uchun shart bo'lmagan, qo'shimcha axborot sifatida qaraladigan jadvallar, diagrammalar, rasmlar, test materiallari, metodik ishlanmalar va boshqa yordamchi ma'lumotlar kiritiladi. Agar ilova qilish zarurati yuzaga kelsa, ular dissertatsiyaning oxirida joylashtiriladi. Har bir ilova yangi betdan boshlanib, betning o'ng yuqori burchagida «Ilova» degan yozuv bilan belgilanadi. Agar ilovalar soni bir nechta bo'lsa, ular arab raqamlari orqali ketma-ket raqamlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan magistrant kasb odob-axloqi qoidalariga qat'iy rioya qilishi shart. Jumladan, plagiatga yo'l qo'ymaslik, ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik, manbalarni noto'g'ri ko'rsatmaslik va yolg'on iqtiboslar keltirmaslik asosiy talablardan hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining umumiy hajmi titul varag'i, mundarija, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari holda, odatda, 70-80 sahifa atrofida bo'lishi tavsiya etiladi. Dissertatsiya magistrant tahsil olgan tilda tayyorlanadi, zarur hollarda kafedra yoki magistratura bo'limi tavsiyasiga muvofiq ravishda chet tilda yozilishi mumkin. Chet tilda tayyorlangan dissertatsiyaga davlat tilida yozilgan annotatsiya ilova qilinadi hamda uning dastlabki va rasmiy himoyalari tarjima orqali o'tkaziladi.

Magistratura mutaxassisligi xususiyatlarini hisobga olgan holda, dissertatsiya tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi fakultet O'quv-metodik kengashi qarori bilan o'zgartirilishi yoki kengaytirilishi mumkin. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish uning mazmunini yoritish bilan teng ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Dissertatsiya tuzilishi tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniq ifoda etishga xizmat qilishi lozim. Mantiqiy izchillikni buzadigan yoki tadqiqot natijalariga aloqador bo'lmagan materiallar asosiy matnga kiritilmasligi, zarur hollarda esa ilovalar qismida berilishi maqsadga muvofiq.

Magistrlik dissertatsiyasida keltirilgan surat, grafik, chizma, diagramma va shu kabilar rasm so'zi bilan ifodalanib, ular matnda qulay tarzda joylashtirilishi lozim. Rasmlar dissertatsiya boblari tartib raqami ko'rsatilgan holda ketma-ketlikda keltiriladi (masalan: 1.1-rasm, 1.2-rasm va shu tarzida) rasmning tartib raqami va nomi uning pastki qismida joylashtiriladi (dissertatsiyaning ilovalarda keltirilgan rasmlar bundan mustasno). Rasmga izoh berilishi, uning manbasi keltirilishi talab etiladi.

Formula belgilarining izohi bevosita uning quyi qismida formuladagi ularning ketma-ketligi bo'yicha keltiriladi. Formula belgilarining ma'nolari birinchi qatori bunda so'zi bilan ikki nuqtasiz boshlanadi. Har bir belgining ma'nosi yangi qatordan boshlanishi lozim. Formulalar matnda alohida bo'sh qatorlar bilan ajratib yoziladi. Har bir formulaning yuqori va pastki tomonlaridan 12 o'lchamli (12 pt) oraliq qoldirilishi talab etiladi. Formula bitta qatorga sig'magan holda sig'magan qismi tenglik belgisi "q" yoki qo'shish "Q", ayirish "-", ko'paytirish "x" va bo'lish ":" belgilaridan keyin ko'chirilishi kerak. Har bir formula, u joylashgan bob tartib raqami ko'rsatilgan holda ketma-ketlikda, masalan: (1.1), (1.2) va shu kabi tarzda formulaning o'ng tomonida qavs ichida keltiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi qo'lyozma va grafik qismlardan iborat bo'lib, ularning tarkibi va mundarijasi o'zaro mos bo'lishi shart. Matnda grafik va illustrativ materiallardan foydalanishga ruxsat etiladi. Dissertatsiya qo'lyozmasi to'liq yakunlangandan so'ng, ilmiy rahbarning roziligi asosida bosmaxona talablariga muvofiq holda muqovalanishi zarur.

II. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI RASMIYLASHTIRISH VA HIMOYA QILISH QOYDALARI

2.1. Magistrlik dissertatsiyasini yozish va rasmiylashtirishning asosiy qoidalari.

Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning belgilangan me'yorlarga muvofiq ravishda to'g'ri rasmiylashtirilishi hisoblanadi. Dissertatsiyaning to'g'ri rasmiylashtirilishi ish mazmunining sifatli ifodalanishiga, shuningdek, uning himoya jarayonida muvaffaqiyatli baholanishiga xizmat qiladi. Magistrlik dissertatsiyasi o'zbek, rus yoki ingliz tillarida tayyorlanishi mumkin. U ilmiy tadqiqot ishi hisoblangani bois, uni yozish va rasmiylashtirish talablari mazmunan nomzodlik dissertatsiyalariga qo'yiladigan talablarga yaqin bo'lishi lozim. Matnda fikrlarning aniq, mantiqiy va izchil bayon etilishi dissertatsiya yozishning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Matnda yangi fikr yoki mulohaza har doim xatboshidan boshlab yozilishi kerak. Agar dissertatsiya matnida xorijiy tildagi atamalar, shu jumladan, xalqaro tashkilotlar, kompaniyalar, banklar yoki agentliklar nomlari keltirilsa, ular asl shaklida to'liq ifodalanishi lozim. Matnning tugallanmagan qismlarini boshqa sahifaga ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi. Boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar ishlatilgan taqdirda, plagiat holatlarining oldini olish maqsadida, ularning manbalari matnda albatta ko'rsatilishi shart. Iqtibos va izohlar sahifa ostida xatboshidan yoziladi va bir nechta manba keltirilganda, ular ketma-ket tartib raqamlari bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi tanlangan mavzu mazmuni va tadqiqot maqsadini to'liq ochib berishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Matnda mantiqiy ketma-ketlikka qat'iy rioya qilinishi, izchillik buzilmasligi lozim. Yangi fikrlar abzasdan boshlab yoziladi, tugallanmagan jumalarni keyingi sahifaga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Agar ilmiy manbalardan misollar yoki ma'lumotlar keltirilsa, ularning manbalari sahifaning pastki qismida izoh sifatida ko'rsatilishi shart.

Magistrant dissertatsiyani tayyorlash jarayonida asosiy e'tiborni tadqiqot ishining mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalarini ochib berishga qaratishi lozim. Dissertatsiya boblarining o'zaro mantiqiy bog'liqligini buzadigan, tadqiqot ob'ektiga bevosita taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni matnga kiritish maqsadga muvofiq emas. Katta hajmdagi jadvallar yoki

statistik ma'lumotlardan foydalanish zarurati tug'ilgan hollarda, ularni ilova sifatida berish tavsiya etiladi, chunki ilovalar dissertatsiyaning asosiy hajmiga kiritilmaydi.

2.2. Dissertatsiya matniga, jadval, rasm va ilovalarga qo'yiladigan talablar.

Dissertatsiya, qoida tariqasida, standart formatdagi varaqlarda **1,5 qator** oralig'ida yozilishi lozim. Varaq hoshiyalari yuqori, pastki va o'ng tomondan 2 sm, chap tomondan esa 3 sm bo'lishi kerak. Xatboshi 5-6 belgidan iborat bo'lib, butun matn davomida bir xil saqlanishi shart (6-ilova).

Dissertatsiya matni kompyuterda terilgan holda taqdim etilib, asosan **Times New Roman** shrifti, **14 o'lchamda**, **Microsoft Word** matn tahrirlagichidan foydalanish tavsiya etiladi. Matnda qatorlar oralig'i 1,5 sm, yuqori va pastki hoshiyalar 2 sm, chap hoshiya 3 sm, o'ng hoshiya 2 sm qilib belgilanishi lozim.

Dissertatsiyaning umumiy hajmi titul varag'i, mundarija, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari holda 80 betdan oshmasligi tavsiya etiladi. Dissertatsiya magistrant tahsil olgan tilda yoziladi, zaruratga ko'ra kafedra yoki magistratura bo'limi tavsiyasi asosida chet tilda ham tayyorlanishi mumkin. Chet tilda yozilgan dissertatsiyaga davlat tilidagi annotatsiya ilova qilinadi hamda uning dastlabki va rasmiy himoyalari tarjima orqali amalga oshiriladi.

Magistratura mutaxassisligi xususiyatlarini inobatga olgan holda, dissertatsiya tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi fakultet o'quv-metodik kengashi qarori bilan o'zgartirilishi yoki kengaytirilishi mumkin. Magistrlik dissertatsiyasi uchun ilmiy rahbar, ichki va tashqi taqrizchilarning taqrizlari talab etiladi.

Boblar va sarlavhalar nomlarini rasmiylashtirish.

Dissertatsiyaning har bir bobi yangi sahifadan boshlab yoziladi. Bob nomi yozilgandan keyin tegishli paragraf sarlavhasi keltiriladi. Bob va paragraf nomlari asosiy matndan qo'shimcha interval bilan ajratib yoziladi. Ularning oxiriga nuqta qo'yilmaydi, osti chizilmaydi, ajratib ko'rsatish maqsadida boshqa belgilar qo'llanilmaydi va sarlavhalarni keyingi betga ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar sarlavha ikki yoki undan ortiq jumalardan iborat bo'lsa, ular orasiga nuqta qo'yiladi.

Dissertatsiya boblari bosh harflarda yozilib, rim raqamlari bilan belgilanadi, paragraflar esa arab raqamlari bilan raqamlanadi. Masalan, I, II, III-boblar va 1.1, 1.2, 2.1, 2.2 kabi paragraflar shaklida. Sarlavhalarda

soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirishga ruxsat berilmaydi va ular oxiriga nuqta qoʻyilmaydi. Har bir bob alohida sahifadan boshlanishi shart.

Bob nomi bilan matn oʻrtasidagi interval 15 mm, bob va paragraf sarlavhalari oʻrtasidagi interval esa 8 mm qilib belgilanadi. Paragraf raqamidan keyin nuqta qoʻyilmaydi (masalan, 1.1). Kirish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati sarlavhalari oldida raqam qoʻyilmaydi hamda ularni varaqning yuqori qismi markazida bir xil uslubda joylashtirish tavsiya etiladi.

Titul varagʻini rasmiylashtirish. Titul varagʻi magistrlik dissertatsiyasining birinchi sahifasi hisoblanadi va u qatʼiy belgilangan meʼyorlar asosida toʻldirilishi lozim. Titul varagʻidan keyin dissertatsiyaning mundarijasi joylashtiriladi. Titul varagʻini rasmiylashtirishda tasdiqlangan namunaga toʻliq rioya etilishi talab etiladi (3-ilova).

Dissertatsiyaning titul varagʻi quyidagi talablarga muvofiq tarzda rasmiylashtirilishi kerak. Dissertatsiya mavzusining nomi 16 oʻlchamdagi shriftda, muallifning familiyasi va ismi hamda berilgan malaka nomi 14 oʻlchamdagi shriftda yoziladi. Dissertatsiya mavzusining nomi, magistrantning familiyasi, ismi va otasining ismi, «magistrlik dissertatsiyasi» iborasi hamda ish bajarilgan yil katta harflarda ifodalanadi. Shrift turini tanlashda asosan **Times New Roman** yoki **Arial** shriftlaridan foydalanish maqbul hisoblanadi.

Matndagi qaydlar, koʻchirmalar va oʻzlashtirilgan parchalarni rasmiylashtirish. Dissertatsiya matnini bayon etish jarayonida magistrant tadqiqot mazmuniga muvofiq ravishda jadvallar, rasmlar, misollar, sxemalar, formulalar va boshqa illustrativ elementlardan foydalanishi mumkin. Bunday elementlar har doim ham tegishli matn bilan yonma-yon joylashtirilishi shart emas. Boshqa manbalardan olingan maʼlumotlar sahifa ostida izoh sifatida koʻrsatilishi lozim. Izoh asosiy matndan gorizontaal chiziq bilan ajratiladi hamda arab raqamlari yoki shartli belgilar orqali raqamlanadi.

Dissertatsiya matnida qoʻllanilgan manbalarga havolalar sahifa ostidagi eslatmalar orqali beriladi. Bunda havolalar sahifaning quyi qismida chiziq ostida, 10 oʻlchamli shriftda yoziladi. Har bir sahifada havolalar arab raqamlari bilan ketma-ket tartibda raqamlanadi. Agar havola muayyan soʻzga tegishli boʻlsa, raqam belgisi oʻsha soʻzdan keyin qoʻyiladi, agar butun jumla yoki fikrga taalluqli boʻlsa, u jumla oxirida keltiriladi.

Quyidagi holatlarda dissertatsiya matnida albatta havola keltirilishi shart:

+ davlat arboblari, olimlar va mutaxassislarning fikrlari iqtibos qilinganda;

+ dissertatsiyada qo'llanilgan raqamli ko'rsatkichlar manbasi ko'rsatilganda;

+ adabiyotlar va boshqa ilmiy manbalardan iqtibos olinganda; xorijiy adabiyotlar yoki birlamchi manbalardan foydalanilganda;

+ statistik ma'lumotlar va rasmiy to'plamlardan iqtibos keltirilganda;

+ me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilganda;

+ rasmiy internet manbalariga tayanilganda.

Dissertatsiya matnida ko'pincha boshqa mualliflar tomonidan aniqlangan faktlar yoki ilmiy xulosalardan foydalanishga to'g'ri keladi. O'zlashtirilgan materiallarni bayon etishda akademik nutq odobiga rioya qilinishi, manbalar aniq va qisqa shaklda ko'rsatilishi lozim. Boshqa manbalardan olingan barcha materiallar izohlarda aks ettirilishi shart. Foydalanilgan adabiyotlarni rasmiylashtirish tartibi oldingi bo'limlarda batafsil bayon etilgan bo'lib, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar quyidagi umumiy ketma-ketlikda keltiriladi.

Avvalo O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 yil 23 sentabr), keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek Prezident Sh.M. Mirziyoevning asarlari keltiriladi. Keyin darsliklar va o'quv qo'llanmalar, ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar hamda ishonchli internet manbalari ko'rsatiladi.

2.3. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasini o'tkazish tartibi.

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi kafedra tomonidan shakllantirilgan komissiyada, ilmiy rahbar yoki ilmiy maslahatchi ishtirokida o'tkaziladi. Zarur hollarda ushbu jarayonga boshqa kafedralardan, shuningdek, tegishli sohada faoliyat yuritayotgan tashkilot va muassasalarning malakali mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Agar magistrantga ilmiy maslahatchi biriktirilgan bo'lsa, dastlabki himoyaga qadar undan magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha yozma xulosa olinishi shart. Dastlabki himoyaga kiritilishidan oldin magistrant ilmiy rahbar xulosasi, ichki va tashqi taqrizlar hamda dissertatsiya mavzusi bo'yicha kamida ikkita ilmiy maqola yoki konferensiya tezisiga ega bo'lishi talab etiladi.

Dastlabki himoya natijalari tegishli kafedra yig'ilishi bayoni bilan rasmiylashtiriladi. Ichki va tashqi taqrizchilar kafedra tavsiyasiga asosan

belgilanadi va ularning ro'yxati oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlar bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

Taqrizchining asosiy vazifalariga magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligi, ilmiy yangiligi va yakunlanganlik darajasini baholash, shuningdek, belgilangan dastlabki himoya sanasidan kamida uch kun oldin yozma taqriz taqdim etish kiradi. Agar taqriz jarayonida kasb odob-axloqi qoidalarining buzilishi, jumladan plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish yoki yolg'on iqtiboslar holati aniqlansa, ushbu kamchiliklar taqrizda ochiq bayon etilishi lozim.

Agar magistrlik dissertatsiyasi belgilangan me'yoriy talablarga javob bermasa yoki aniqlangan kamchiliklarni qisqa muddatda bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmasa, taqrizchi dissertatsiyani himoyaga tavsiya etmaslik to'g'risida asoslangan xulosa berish huquqiga ega.

Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoya kuni oliy ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi. Rasmiy himoya Davlat yakuniy attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Magistrant himoya jarayonida dissertatsiya mazmunini taqdimot vositasida yoritadi va uning chiqishi, qoida tariqasida, 20 daqiqadan oshmasligi kerak.

Rasmiy himoya davomida komissiya a'zolari magistrantni tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ishning amaliyot bilan bog'liqligi, mustaqil ilmiy yondashuvi, foydalanilgan manbalar tahlilining chuqurligi, tadqiqot usullarining asoslanganligi, ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliy ahamiyati, shuningdek, nazariy va amaliy qismlar o'rtasidagi mantiqiy uyg'unlik darajasi asosida baholaydilar.

Agar magistrantga «qoniqarsiz» baho qo'yilsa yoki dissertatsiya rasmiy himoyaga kiritilmasa, u keyingi uch yil mobaynida ishni qayta himoya qilish huquqiga ega bo'ladi. Rasmiy himoya natijalari oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida muhokama qilinadi, himoya qilingan magistrlik dissertatsiyalari esa belgilangan tartibda kamida uch yil davomida saqlanadi. Dissertatsiya rasmiy himoya sanasidan kamida bir oy oldin dastlabki himoyadan o'tkazilishi shart.

2.4. Magistrlik dissertatsiyasiga beriladigan taqriz va retsenziyalarga qo'yiladigan talablar.

Magistrlik dissertatsiyasi uchun ilmiy rahbar xulosasi, shuningdek, ichki va tashqi taqrizlar taqdim etilishi majburiy hisoblanadi. Ichki va tashqi taqrizchilar tegishli kafedra tomonidan tavsiya etiladi va ularning ro'yxati

oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlar bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

Taqrizchilarga taqdim etilgan dissertatsiyani xolisona va ilmiy asosda baholash, unda professional etika qoidalariga rioya etilganlik holatini tekshirish hamda ishning dolzarbligi, ilmiy darajasi va tugallanganligi yuzasidan asoslangan xulosa berish vazifasi yuklanadi. Yozma taqriz dastlabki himoya sanasidan kamida uch kun oldin taqdim etilishi shart.

Agar taqrizchi dissertatsiyada plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish yoki yolg'on iqtiboslar mavjudligini aniqlab, ularni qisqa muddatda bartaraf etish imkoniyati mavjud emas deb hisoblasa, u holda ishni dastlabki himoyaga tavsiya etmaslik haqida xulosa beriladi.

Ilmiy rahbar xulosasida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari qanday darajada yoritilganligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy qiymati, magistrantning tahliliy fikrlash qobiliyati, xulosa va tavsiyalarining asoslanganligi hamda dissertatsiyaning magistrlik ishlariga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi aks ettirilishi lozim.

Tashqi taqrizda esa tadqiqot mavzusining ahamiyati, ishning ilmiy va amaliy natijalari, amaliyot uchun qiymati, mazmunning tugallanganlik darajasi hamda dissertatsiyaning belgilangan talablarga mosligi ochib berilishi shart.

Taqriz, odatda, 3-5 sahifa hajmida tayyorlanadi va unda taqrizchining shaxsiy imzosi, berilgan sana hamda ro'yxatga olingan raqami ko'rsatiladi. Taqrizchi imzosi u faoliyat yuritayotgan tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi lozim. Magistrant tugallangan dissertatsiyani shaxsiy ish rejasini bajarganligi haqidagi ma'lumotnoma, ilmiy rahbar xulosasi va tashqi taqriz bilan birga kafedraga taqdim etadi.

Kafedra tomonidan dissertatsiyaning asosiy mazmunini aks ettiruvchi, 1,5 intervalda yozilgan 12-18 sahifalik qisqacha tavsifni ilmiy to'plamda nashr etish uchun tavsiya qilish amaliyoti qo'llaniladi. Kafedra mudiri dissertatsiya bilan tanishib, uni himoyaga qo'yish to'g'risida qaror qabul qiladi va bitiruvchilar ishtirokida dastlabki himoyani tashkil etadi. Dastlabki himoyadan keyin barcha hujjatlar Davlat attestatsiya komissiyasiga topshiriladi.

Magistrant tomonidan tayyorlanadigan va Davlat attestatsiya komissiyasi yig'ilishida taqdim etiladigan nutq matni himoya jarayonining asosiy hujjatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu nutq nafaqat dissertatsiya mazmunini, balki magistrantning butun tadqiqot davomida olib borgan ishlari natijasini ham ifodalaydi. Dastlabki himoyadan o'tmagan yoki

himoyaga tavsiya etilmagan dissertatsiya «tugallanmagan», dastlabki himoyadan o'tib, lekin rasmiy himoyadan o'tmagan ish esa «himoya qilinmagan» deb hisoblanadi.

2.5. Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlash tartibi.

Magistrlik dissertatsiyasini texnik va uslubiy jihatdan to'liq rasmiylashtirish ishlari yakunlangandan so'ng magistrant ta'lim jarayonining eng mas'uliyatli bosqichi - dissertatsiyani himoyaga tayyorlash jarayoniga jiddiy yondashishi lozim. Bu bosqich, avvalo, himoya bilan bog'liq bo'lgan barcha zarur hujjatlar va materiallarni belgilangan tartibda rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi.

Magistrlik dissertatsiyasi majburiy tarzda taqrizdan o'tkaziladi. Tashqi opponent dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan ilmiy soha bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar orasidan belgilanadi. Opponent taqriz jarayonida dissertatsiyaning mazmuni va asosiy qoidalarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi, tanlangan mavzuning dolzarbligi, uni yoritishdagi mustaqil yondashuv, tadqiqot usullaridan foydalanish darajasi, xulosa va tavsiyalarning aniqligi, olingan natijalarning ishonchliligi, yangiligi hamda amaliy ahamiyatini baholaydi.

Taqrizda ishning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda mavjud kamchiliklar, jumladan, metodik yoki faktologik xatolar ham xolisona qayd etilishi lozim. Taqriz hajmi, odatda, kompyuterda terilgan 2-5 sahifani tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga chiqarish uchun kafedra mudirining yozma roziligi olinishi shart. Belgilangan talablar asosida rasmiylashtirilgan dissertatsiya ilmiy rahbar xulosasi va tashqi taqrizlar bilan birga ikki nusxada kafedraga taqdim etiladi. Kafedra ushbu materiallarni ko'rib chiqib, dastlabki himoya o'tkaziladigan sana va vaqtni belgilaydi.

Dastlabki himoyadan muvaffaqiyatli o'tgan magistrlik dissertatsiyalari kafedra yig'ilishi bayoni bilan rasmiylashtiriladi va ularni ochiq himoyaga tavsiya etish haqida qaror qabul qilinadi. Shundan so'ng magistrant 10-15 daqiqalik ma'ruza tayyorlashga kirishadi. Bu jarayon ilmiy rahbar, tashqi opponent va kafedra mudirining ruxsatlari olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi: magistrantning taqdimoti, komissiya a'zolarining savollariga javoblar, komissiya tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar

hamda bildirilgan e'tiroz va tavsiyalarga nisbatan magistrantning munosabati.

Komissiya oldida so'zlanadigan nutq matni magistrant tomonidan mustaqil ravishda tayyorlanadi. Ushbu nutq nafaqat dissertatsiyaning ilmiy darajasini, balki magistrantning tadqiqot davomidagi mehnati va tayyorgarlik darajasini ham ifoda etadi.

2.6. Magistrlik dissertatsiyasi himoyasini o'tkazish qoidalari.

Magistrlik dissertatsiyasining himoyasi ochiq, ommaviy tarzda o'tkazilib, u ilmiy munozara ruhida, yuqori talabchanlik, prinsipiiallik va ilmiy etika me'yorlariga qat'iy rioya etilgan holda tashkil etiladi. Himoya jarayonida Davlat attestatsiya komissiyasi raisi dissertatsiyaning to'liq nomini, muallifning familiyasi, ismi va otasining ismini e'lon qiladi, shuningdek, ishga taalluqli barcha zarur hujjatlar mavjudligini ma'lum qiladi. Shu bilan birga, magistrantning qisqacha ta'limiy va ilmiy faoliyati, o'qishdagi natijalari va mavjud bo'lsa, e'lon qilingan ilmiy ishlari haqida axborot beriladi.

Shundan keyin so'z ilmiy rahbarga beriladi. Ilmiy rahbar magistrantning dissertatsiya ustida olib borgan ishlarini baholab, tadqiqotning ahamiyati va sifati yuzasidan o'z fikrlarini bayon etadi hamda ilmiy rahbar tomonidan tayyorlangan yozma xulosa komissiya a'zolariga o'qib eshittiriladi.

Navbat magistrantga beriladi. Magistrant oldindan tayyorlangan ma'ruza asosida chiqish qiladi, imkoniyat darajasida ma'ruzani erkin nutq shaklida bayon etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqot natijalarini taqdim etish uchun unga 15 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Ma'ruzada tadqiqotning metodologik asoslari, qo'yilgan vazifalarning yechimi, olingan natijalar va amaliy tavsiyalar yoritilishi lozim. Magistrant asosiy e'tiborni o'zining ilmiy va amaliy jihatdan muhim yangiliklariga qaratishi kerak. Zarur hollarda slaydlar, jadvallar va grafik materiallar namoyish etilishi mumkin.

Himoya muvaffaqiyati nafaqat ma'ruza mazmuniga, balki uning ifoda etilish uslubiga ham bog'liq. Magistrant nutqi aniq, ravon, imloviy jihatdan to'g'ri va tushunarli bo'lishi, berilgan savollarga ishonchli, ilmiy asoslangan javoblar qaytarishi lozim.

Magistrant chiqishidan so'ng komissiya raisi tashqi opponentning taqrizini o'qib eshittiradi. Shundan keyin magistrantga opponent bildirgan e'tiroz va tavsiyalarga munosabat bildirish imkoniyati beriladi. Keyin ilmiy

muhokama va savol-javob jarayoni boshlanadi. Komissiya a'zolari tadqiqot mazmuni, qo'llanilgan usullar va olingan natijalar bo'yicha savollar berish huquqiga ega.

Savollarga javob berishda magistrant faqat tadqiqot mohiyatiga taalluqli fikrlarni bildirishi, kamtarlik va hurmat tamoyillariga amal qilishi zarur. Savolni diqqat bilan tinglab, zarur bo'lsa, yozib olish va har bir savolga alohida, izchil javob berish tavsiya etiladi.

Muhokama tugagach, magistrantga yakuniy so'z berish mumkin. Shundan so'ng Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari yopiq majlisga o'tib, himoya natijasi bo'yicha qaror qabul qiladilar. Qaror komissiya a'zolari ovozlarining oddiy ko'pchiligi bilan qabul qilinadi, ovozlar teng bo'lgan taqdirda esa raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Qaror e'lon qilingach, komissiya raisi dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan magistrantlarga magistr akademik darajasi berilganini ma'lum qiladi va majlisni yopiq deb e'lon qiladi.

2.7. Dissertatsiya himoyasiga taqdimot tayyorlash va uni o'tkazish tartibi.

Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish jarayonida magistrant tomonidan elektron taqdimot tayyorlanishi tavsiya etiladi. Taqdimot dissertatsiyaning asosiy mazmuni, ilmiy yangiligi va tadqiqot natijalarini qisqa, aniq va tizimli tarzda aks ettirishi lozim. Magistrantning chiqishi taqdimot materiallari bilan uyg'un holda olib borilib, umumiy davomiyligi 20 daqiqadan oshmasligi kerak.

Taqdimotda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ishning tuzilishi, nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari, tadqiqot davomida ilgari surilgan ilmiy farazlar, olingan asosiy natijalar, ularning ishonchliligi hamda nazariy va amaliy ahamiyati yoritilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollariga ham e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Magistrant o'z ma'ruzasini mazmunan o'zaro bog'langan uch qismga bo'lib tayyorlaydi. Birinchi qismda mavzuning ahamiyati, ilmiy muammolar, tadqiqot maqsadi va vazifalari qisqacha bayon etiladi. Ikkinchi qism asosiy bo'lib, unda erishilgan natijalar tahlil qilinadi, mavjud amaliyot bilan qiyosiy baholanadi va tanqidiy xulosalar keltiriladi. Yakuniy qismda esa dissertatsiyada ishlab chiqilgan asosiy taklif va tavsiyalar hamda umumiy xulosalar ifoda etiladi.

Himoya jarayonida magistrant PowerPoint yoki shu kabi dasturlar orqali tayyorlangan slaydlar asosida chiqish qiladi. Shu bilan birga, u ilmiy

rahbar va taqrizchilar tomonidan berilgan savollar hamda mulohazalarga oldindan tayyorlangan, asoslangan javoblarga ega bo'lishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi ochiq ilmiy muhokama shaklida o'tkaziladi. Komissiya raisi himoyani ochib, dissertatsiya mavzusi, muallif haqidagi ma'lumotlar va hujjatlar mavjudligini e'lon qiladi. Keyin ilmiy rahbarning fikri tinglanadi yoki uning yozma taqrizi o'qib eshittiriladi. Shundan so'ng magistrant tadqiqot natijalarini taqdim etadi.

Magistrant chiqishida asosiy e'tiborni tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari, shaxsan o'zi ishlab chiqqan yangiliklarga qaratishi lozim. Chiqishdan keyin taqrizchilar fikrlari o'qib eshittiriladi va magistrant ularga javob beradi. Keyin komissiya a'zolari tomonidan savol-javob va ilmiy munozara o'tkaziladi.

Komissiya magistrantni mavzunung dolzarbligi, mustaqil yondashuvi, manbalar tahlili, tadqiqot usullarining asoslanganligi, natijalarning ishonchliligi va yangiligi, nazariy va amaliy qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik kabi mezonlar asosida baholaydi. Barcha fikr va baholar umumlashtirilib, dissertatsiyaga yakuniy baho qo'yiladi.

Rasmiy himoyadan o'tmagan dissertatsiya masalasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida oliy ta'lim muassasasining ilmiy kengashi yig'ilishida muhokama etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasasining ilmiy kengashi dissertatsiyani himoyadan o'tmaganligiga ilmiy rahbarning uzrsiz sabablarga ko'ra qilgan kamchiligi yoki mas'uliyatsizligi oqibatida yo'l qo'yilgan deb qaror qilgan taqdirda, ushbu ilmiy rahbar dissertatsiyalarga ilmiy rahbarlik qilish huquqidan keyingi 3 yilgacha bo'lgan muddatga mahrum etilishi mumkin. Rasmiy himoyadan o'tgan dissertatsiyalar oliy ta'lim muassasasida kamida 10 yil saqlanishi lozim.

ILOVALAR

1-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

“ ” 20__-yil

“KELISHILDI” Magistratura bo‘limi boshlig‘i _____ “ ” 20__-yil	“KELISHILDI” Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor _____ “ ” 20__-yil
--	---

XUDOYOROV SHODIYOR ZIYODULLO O‘G‘LINING

70110501- Tasviriy san‘at
magistratura mutaxassisligi bo‘yicha
20__-20__, 20__-20__ o‘quv yillari uchun

**MAGISTRATURA TALABASINING
KALENDAR ISH REJASI**

**Dissertatsiya mavzusi: Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini
tasviriy san‘at orqali targ‘ib qilish**

Magistratura talabasining ushbu kalendar ish rejasi
“San‘atshunoslik” kafedrasining 20__ - yil _____ -sonli
yig‘ilishida muhokama qilingan.

Kafedra mudiri: _____

Reja bilan tanishdim:
Magistratura talabasi: _____

Ilmiy rahbar: _____

Guliston-20__

I. Talabaning o‘quv metodik, ilmiy tadqiqot va pedagogik amaliyot faoliyati bo‘yicha kalendar ish rejasi
1. O‘quv va o‘quv-uslubiy ishlar

№	Chora-tadbirlar nomi	Bajarilish muddati	Natijalar: bajaralishi bo‘yicha belgilar
1	Nazariy ta’lim	1-4 semestrlar	O‘quv rejasi, dars jadvaliga asosan
2	Mutaxassislik fanlari bo‘yicha: Tarbiya fanidan nazorat savollari va test topshiriqlari to‘plami tayyorlash.	1-2 semestr Oktyabr-may 20__-20__ y	Har bir fanning ishchi o‘quv rejasiga muvofiq bajariladi
3	Mutaxassislik fanlari bo‘yicha: Tasviriyy san’at fanini o‘qitish metodikasi fanidan didaktik o‘quv materiallari to‘plami tayyorlash; Tasviriyy san’at tarixi fanidan o‘quv-uslubiy ishlanmalar to‘plami tayyorlash; Interfaol usullar yordamida keyslar to‘plami ishlab chiqish.	2-semestr oxirigacha 20__-y.	Aniq bir o‘quv fani bo‘yicha
4	Mutaxassislik fanlari bo‘yicha: Tasviriyy san’at fanini o‘qitish metodikasi fanidan didaktik o‘quv-uslubiy ishlar bo‘yicha rejalashtirilgan ishlar ijrosi yuzasidan ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda yozma hisobotlar tayyorlab borish.	Har oyda belgilangan jadval bo‘yicha kafedrada hisobot berish, semestrlar yakunida Magistratura bo‘limiga yozma hisobot taqdim etish	Kalendar ish rejasi asosida

2. Ilmiy-tadqiqot ishlari

№	Tadbirlar nomi	Bajarilish muddati	Natijalar: bajarilishi bo'yicha belgilar
1	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriyl san’at orqali targ’ib qilish” mavzusini ilmiyl rahbar bilan birgalikda muhokama qilib, mavzu bo’yicha dissertatsiya kalendar rejasini shakllantirish.	1-semestr Noyabr 20__-y.	Ilmiyl rahbar maslahati bo’yicha Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiyl rahbar: _____
2	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriyl san’at orqali targ’ib qilish” mavzusi doirasida maqolalar tayyorlash va nashr etish.	O’quv davri mobaynida (dastlabki himoyaga kuniga qadar) 20__-20__ y.	1-2 semestrlarda 2 ta; 3-4 semestrlarda 2 ta.
3	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriyl san’at orqali targ’ib qilish” mavzusining dolzarbilgini belgilaydigan me’yoriyl hujjatlar bilan tanishish; “Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriyl san’at orqali targ’ib qilish” mavzusi yuzasidan mavjud ilmiyl adabiyotlar, ilmiyl-metodik qo’llanmalar bilan tanishish va ularni tahlil qilish; “Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriyl san’at orqali targ’ib qilish” mavzusi bo’yicha maqsad va vazifalarni aniqlashtirish	1-semestr Oktyabr-dekabr 20__- y. 1-2 semestr Fevral-May 20__-20__ y. 1- semestr sentyabr 20__ y.	Yuqori tashkilot qarorlari va me’yoriyl hujjatlari bilan tanishib, konspektlashtirish va ulardagi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha ilmiyl adabiyotlar, metodik qo’llanmalarni tahlil qilish asosida maqsad va vazifalarni beligilash Dissertatsiya mavzusi bo’yicha aniqlangan har bir

			muammo bo'yicha ilmiy rahbar bilan maslahatlashib, yozma ravishda ilmiy-metodik tavsiya ishlab chiqish. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
4	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriy san’at orqali targ‘ib qilish” mavzusi bo'yicha ilmiy-pedagogik tajriba sinov ishlarini o'tkazish	O'quv davri mobaynida 20__-20__-y.	Tadqiqot dasturiga muvofiq
5	“San’atshunoslik” kafedrasining ilmiy va innovatsion tadqiqotlari ishlarida ishtirok etish	O'quv yili mobaynida	Ilmiy rahbar maslahati asosida Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar:R.Xayrov
6	Talabalar va yosh olimlar ilmiy konferensiyalarida magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha tayyorlangan ma'ruzalar bilan ishtirok etish	O'quv yili mobaynida	Ilmiy ma'ruza yoki maqola bilan
7	Talabalar ilmiy to'garagi va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ilmiy seminarlarda faol ishtirok etish	O'quv yili mobaynida	Tadqiqot mavzusi bo'yicha tayyorlangan ma'ruzalar bilan qatnashish, seminarlarda ishtirok etish
8	Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlarning	Har oyda belgilangan	

			himoyasidan o'tgandan, belgilangan shakldagi dissertatsiya annotatsiyasi institut rasmiy saytida e'lon qilingandan so'ng amalga oshiriladi.
--	--	--	---

3. Ilmiy-pedagogik ishlar

№	Tadbirlar nomi	Bajarilish muddati	Natijalar: bajarilishi bo'yicha belgilar
1	O'quv jarayonini tashkil qilishga bog'liq me'yoriy hujjatlar: Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari bilan tanishish.	1-semestr Oktyabr-dekabr 20__-y.	Me'yoriy hujjatlarning zarur joylarini konspektlashtirish
2	Har semestrda kamida kafedraning 2 nafar yetakchi professor-o'qituvchilarining ma'ruzalari, seminar va amaliy mashg'ulotlarida qatnashish va ularning mashg'ulotlari bo'yicha tahliliy ma'lumot shakllantirib ilmiy rahbar nazoratidan o'tkazish.	1-2 semestr Oktyabr - Mart 20__-20__ y.	O'quv mashg'ulotlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarda kafedraning qarori bo'yicha o'tkaziladi
3	Akademik guruhlarda qaysi mashg'ulotlarni o'tkazish (ilmiy rahbar yoki yetakchi professor-o'qituvchilar ishtirokida) bo'yicha ilmiy rahbar tavsiyasiga ko'ra o'quv mashg'ulotlar o'tkazish va fan o'qituvchisi bilan	2-3 semestr Oktyabr-Mart 20__-20__ y.	O'quv mashg'ulotlari ilmiy rahbar maslahati va kafedraning qarori bo'yicha o'tkaziladi

	maslahatlashgan holda tayyorgarlik ko‘rish.		
4	Kafedrada tayyorlanadigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar hamda to‘plamlarni tayyorlashda ilmiy rahbar tavsiyasi asosida ishtirok etish.	2-3 semestr Mart – sentyabr 20__-20__ y.	Kafedrada mavjud o‘quv fanlari misolida
5	Pedagogika yo‘nalishi bakalavriat talabalari bilan ma‘naviy tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish.	1-3 semestr Oktyabr-iyul 20_-20_ y.	Fakultet dekanati tavsiyasi asosida
6	Ilmiy-pedagogik ishlar bo‘yicha rejalashtirilgan tadbirlarning ijrosi yuzasidan ilmiy rahbar bilan kelishgan holda yozma hisobotlar tayyorlab borish.	Semestrlar yakunida fakultetga va Magistratura bo‘limiga yozma hisobot taqdim etish	Kalendar ish rejasi asosida

4. Malakaviy amaliyot faoliyati

№	Tadbirlar nomi	Bajarilish muddati	Natijalar: bajarilishi bo‘yicha belgilar
1	Ilmiy-tadqiqot va malakaviy amaliyot faoliyati o‘tkaziladigan joylarda ilmiy tajriba o‘tkazish rejasini belgilash Ilmiy-tadqiqot va malakaviy amaliyot faoliyatini o‘tkazish uchun tashkilot (korxona, bo‘linma) bilan shartnoma tuzish. (Shartnoma tuzishda institut rahbariyati va ilmiy	Magistraturaga qabul qilinganligi to‘g‘risida buyruq rasmiylashtirilgandan so‘ng 3 oy mobaynida 20__-y. Magistraturaga qabul qilinganligi to‘g‘risida buyruq rasmiylashtirilgandan so‘ng 3 oy mobaynida	Magistratura talabasi o‘quv yili mobaynida ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatini bevosita shartnoma tuzilgan tashkilot (korxona, bo‘linma) bilan aloqada amalga oshiradi

rahbar magistratura talabasiga amaliy yordam ko'rsatadi)	20__-y.	
Ilmiy-tadqiqot va malakaviy amaliyot faoliyatini tashkil qilish	Belgilangan reja asosida	

II. Magistrlik dissertatsiyasini bajarishning kalendar rejasi

№	Ish bosqichlari va tadbirlarning asosiy mazmuni	Bajarish muddati	Natijalar: bajarilganligi bo'yicha belgi
I. Tadqiqot o'tkazishga tayyorgarlik			
3	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriy san’at orqali targ‘ib qilish” mavzusi bo'yicha bibliografiya va axborot resurslar, kutubxona fondlari va elektron resurslari bilan tanishish Bibliografik ro'yxat tuzish.	1-semestr davomida 20__-y. 1-semestr davomida 20__-y.	Dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy adabiyotlar bilan GulDPI axborot resurs markazi va internet ma'lumotlari, ilmiy ish yuzasidan faoliyat olib borgan olimlarning ilmiy ishlari bilan tanishiladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar:
5	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriy san’at orqali targ‘ib qilish” mavzusi bo'yicha ilmiy axborot manbalari va hujjatlari (ilmiy adabiyot va elektron resurslar)ni chuqur tahlil qilish	1-2 semestr yanvar-mart 20__-20__ y. 1-2 semestr yanvar-aprel	20__-20__ o'quv yilining 1-semestri davomida dissertatsiya mavzusi bo'yicha ma'lumotlar to'planadi, dissertatsiya rejasi

	Bibliografik ro'yxatga qo'shimcha ilmiy adabiyotlarni kiritish Tahlil qilingan adabiyotlar natijasi asosida konspekt, annotatsiyalarni tayyorlash Dissertatsiya mavzusi bo'yicha bibliografik tahlilni yakunlash. Dissertatsiya uchun zarur bo'lgan usul va yo'nalishlar rejasini tuzish Keltirilgan usul va yo'nalishlarni o'rganib chiqish, ulardan asosiy va yordamchilarini tadqiqot o'tkazish uchun tanlash.	20__-20__ y. 1-2 semestr fevral-aprel 20__-20__ y. 1-3 semestr Mart-sentyabr 20__-20__ y. 1-2 semestr Yanvar-iyun 20__-20__ y.	shakllantiriladi, turli ilmiy axborot resurs markazlari va olimlarning ilmiy ishlarini taxlil qilish asosida asosiy adabiyotlar shakllantirildi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
6	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriy san'at orqali targ'ib qilish” mavzusi muammosini shakllantirish va tavsiflash. Tadqiqot jarayonida anketa savollarini tuzish.	1-semestr, sentyabr-oktyabr 20__ y. 1-semestr, oktyabr-noyabr 20__ y.	Tanlangan ilmiy-tadqiqot muammosi bo'yicha kengaytirilgan ma'lumotlar tayyorlanadi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
7	Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, yangiligi va amaliy ahamiyatga egaligini asoslash. “Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriy san'at orqali targ'ib qilish”	1-semestr, sentyabr-yanvar 20__-20__-y. 20__-20__-y.	Tanlangan ilmiy-tadqiqot muammosi bo'yicha chop etilgan ishlar o'rganib chiqiladi va ishda

	mavzusi bo'yicha mavjud vaziyatlar klassifikatsiyasini qiyosiy tahlilini amalga oshirish. Xulosalarda muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy-amaliy (nazariy) jihatdan yangilik alomatlari, tadqiqot mavzusini dolzarbligini aks ettirish.		foydalanish mexanizmlari aniqlanadi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
8	Dissertatsiyada himoyaga olib chiqiladigan holatlarni shakllantirish	2-semestr, yanvar-mart 20__ y.	Dissertatsiya ilmiy yangiligi asosida shakllantiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
9	Tadqiqotning strukturasi, nazariy va tajribaviy materiallarini tanlash tamoyillarini aniqlash	3-semestr oktyabr-noyabr 20__ y.	Dissertatsiya tuzilishi va pedagogik tajriba rejasi asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
10	Dissertatsiyada keltirilgan terminlar kartotekasini ochish, kartochockalarga ularning mazmunini kiritib borish.	2-semestr Yanvar 20__-y.	Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili natijasi asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
II. Ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish			

1	“Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy obidalarini tasviriylar san’at orqali targ’ib qilish” mavzusidagi dissertatsiyaning mundarijasini shakllantirish. Dissertatsiya boblarining ketma-ketligini va bajarilish muddatini hamda uning ayrim bosqichlari va masalalarini aniqlash.	1-semestr, sentyabr-oktyabr 20__-y.	Ilmiy rahbar bilan birgalikda amlga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
2	Magistrlik dissertatsiyasining struktura-mantiqiy tuzilishi modelini tuzish.	1-semestr, sentyabr-oktyabr 20__-y.	Ilmiy rahbar bilan birgalikda amlga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
III. Tadqiqotni amalga oshirish: materiallar yig’ish (yoki tajriba sinovlar o’tkazish)			
1	Maqsad, vazifalar va dalillarga muvofiq tadqiqot ususlini tanlash va asoslash (sitez, taxlil, modellashtirish, dialektika, analiz usullari)	1-semestr, sentyabr-oktyabr 20__-y.	Dissertatsiya ishi yo’nalishi asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
2	Tadqiqot mavzusi bo’yicha asosiy tushunchalarning aniqlanishini tahlil etish, solishtirish, klassifikatsiyalash, umumlashtirish va boshqalar orqali ilmiy tushunchalarga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish Natijalarni qayd qilish va rasmiylashtirish.	1-semestr, noyabr 20__-y.	Dissertatsiya ishiga oid ilmiy adabiyotlar va dissertatsiya ishlari tahlili asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____

3	Tanlangan ilmiy usullarni qo'llab, taklif etilayotgan, ilgari surilayotgan ko'rsatkichlarni isbotlaydigan, yangi ilmiy axborotni tadqiqot o'tkazish asosida olish:	1-2 semestr dekabr-may 20__-20__ y.	Dissertatsiya ishiga oid ilmiy adabiyotlar va dissertatsiya ishlari tahlili asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
	Olingan ma'lumotlarni dastlabki tizimlashtirishini o'tkazish	1-2 semestr Dekabr -may 20__-20__ y.	Dissertatsiya ishiga oid ilmiy adabiyotlar va dissertatsiya ishlari tahlili asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
	Mavzu doirasida materiallarini yig'ish va tahlil qilish	1-2 semestr Dekabr -may 20__-20__ y.	Dissertatsiya ishiga oid ilmiy adabiyotlar va dissertatsiya ishlari tahlili asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
	Ma'lumotlarni umumlashtirish, mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish, tahlil qilish va baholash, ular qanday ma'no berishini aniqlash.	1-2 semestr Dekabr -may 20__-20__ y.	Dissertatsiya ishiga oid ilmiy adabiyotlar va dissertatsiya ishlari tahlili asosida amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash

			Ilmiy rahbar: _____
4	Olingan ma'lumot (natijalar)ni yangilik, obyektivlik va mantiqiylik, ishonchlilik va butunlik (to'liqlik) talablariga javob berish usullarini qo'llagan holda tekshirish.	2-3 semestr May – sentyabr 20__-y.	Ilmiy rahbar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
5	Ma'lumot va natijalar tahlili asosida ko'rsatkichlarni va ma'lumotlarni tekshirish	4-semestr Fevral 20__-y.	Ilmiy rahbar bilan birgalikda amalga oshiriladi Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
6	Dissertatsiyaning asosiy qismini yozish	3-4 semestr Fevral 20__-20__ y.	Ilmiy rahbar bilan birgalikda amalga oshiriladi
	Dissertatsiyaning kirish qismini yozish	3-semestr fevral-mart 20__-y.	Bajarilganligini tasdiqlash Ilmiy rahbar: _____
